

Toshkent Arxitektura Qurilish Instituti Qurilishni Boshqarish
fakulteti

Falsafiy va ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrası

O`zbekiston Tarixi fanidan

Mustaqil ish

**Mavzu: O`zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasi - davlatning Asosiy Qonuni**

Bajardi: 31-16 guruhi talabasi

Tolipov D.

Toshkent-2016y.

Mavzu: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - davlatning Asosiy Qonuni

Reja:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish oquv kursining maqsadi va vazifalari.
2. Konstitutsiya tushunchasi, mohiyatiga Konstitutsiyaga o'zgartishlar kiritish tartibi.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yaratilishi va qabul qilinishuning tarixiy zarurati.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy printsiplari.
5. O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 4 yanvarda e'lon qilingan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida"gi farmoyishi ham demokratiya yo'lida shahdamqadam qo'yish uchun katta turtki bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish butun O'zbekiston xalqining yuksak va mas'uliyatli burchidir.

Ushbu farmoyishda hayotimizning Asosiy Qonuni bo'lmish O'zbekiston Konstitutsiyasining jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini, ma'no-mazmuni va mohiyatini o'rganish, yosh avlodning huquqiy ongi, tafakkuri va madaniyatini tarbiyalash hamda yuksaltirish, shuningdek, Konstitutsiyani bilish, uning mazmun-mohiyatini targ'ib qilish maqsadida Xalq ta'lim vazirligida, oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligida, Davlat matbuot qo'mitasida va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi bilan birgalikda bir oy muddatda ta'limning barcha turlarida Konstitutsiyani o'rganish uchun zarur bo'lgan dasturlar, kurslar, metodik ko'rsatmalar va boshqa kerakli vositalarga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish nazarda tutildi;

2001 yil 1 aprelga qadar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish maxsus o'quv kurslarini barcha ta'lim turlari uchun ishlab chiqish va tasdiqlash, yosh kadrlar xususiyatlarni hisobga olgan holda, huquqiy ong va madaniyatini shakllantirishga qaratilgan Konstitutsiyani o'rganish bo'yicha darsliklar va maxsus adabiyotlarni 2001 yil 1 avgustga qadar yaratish, chop etish va joylarga etkazishni tashkil etishni hamda 2001-2002 o'quv yilidan boshlab maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida, o'rta maxsus, kasb-hunar va Oliy ta'lim muassasalarida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish kurslarini o'qitish, kurs mazmunining sifatli o'zlashtirishini ta'minlash maqsadida uning yakuni bo'yicha o'quvchi va talabalar orasida kollokvium va sinovlar o'tkazish belgilandi.

O'zbekiston Respublikasining xuquq tizimida Konstitutsiya muhim o'rin tutadi. Konstitutsiya huquq tizimining birlamchi asosidir. U huquq tarmoqlari birligini, o'zaro muvofiqligini hamda harakatlanish printsiplarining yagonaligini

ta'minlaydi. Huquqiy davlat yaratish sari rivojlanib borayotgan davlatimizda huquq ustuvorligini ta'minlab borish muhim vazifalardan sanaladi. Konstitutsiyaning ustuvorligi esa har birimizdan ulkan huquqiy mas'uliyatni talab etadi. Ya'ni, bu mas'uliyat konstitutsiya va qonunlarni bilishni, ularga amal qilib yashashni taqozo etadi. Bu Konstitutsiyani o'rganish zarurligini belgilaydi. Chunki uni o'rganish Konstitutsiya mazmunini ifodalovchi huquqiy qoidalar, ularga ongli ravishda amal qilib yashash va qonun ustuvorligiga erishishning muhim shartidir. Ushbu Farmoyish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining fanlar tarkibida emas, balki alohida o'quv fani sifatida birinchi marta ta'lim muassasalari o'quv rejasiga kiritishga asos bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi eng avvalo inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini muhofaza etuvchi, kafolatlovchi va shu maqsadlarda uni himoyalovchi davlat hokimiyatining muayyan tizimini ta'sis etuvchi huquqiy normalar majmuasidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish kursining pedmetini - Konstitutsiyaning mazmun-mohiyati, normalarini o'rganish tashkil etadi.

“O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish kursi”ni o'qitishdan maqsad vazifalari talabalarga shuningdek keng omma o'rtasida O'zbekiston Konstitutsiyasini huquqiy tizimida tutgan o'rni va rolini targ'ib-tashviq qilish, yosh avlodning huquqiy ongini va madaniyatini yuksaltirish, konstitutsiyaviy huquq normalari, manbalarining xususiyati to'g'risidagi tasavvurlarni shakllantirishdan iborat.

O'quv kursining o'rganish tamoyillari qo'yidagilardan iborat: ilmiylik, nazariy va amaliy tahlil, qiyosiy, mantiqiylik, tarixiylik, siyosiy, huquqiy normalardan foydalanish, umumlashtirish va xulosalar chiqarish.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish kursida shaxs, jamiyat va davlat o'rtasida vujudga keladigan, davlat hokimiyatini amalga oshirish jarayonida paydo bo'ladigan, inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar tizimi (yig'indisi) tashkil etadi. Uni bilib olish esa huquqiy tartibga solishning o'ziga xosligini aniqlash, demak, huquqning bu tarmog'i mundariyasi, vazifasi va maqsadlari haqida, uning boshqa tarmoqlardan farqi to'g'risida tushunchaga ega bo'lish uchun zarurdir.

Konstitutsiya birinchi navbatda davlat boshqaruv shakli va davlat hokimiyatini tashkil etish me'yorlarini o'rnatadi. Bunda u avvalambor uning asosiy printsiplari, manbalari, ta'limotlari va g'oyalari nimalardan iborat ekanligini aniq ko'rsatadi. Bu o'rinda xalq hokimiyatining taqsimlanishi, davlat boshqaruv shakli, ko'p partiyaviylik, hur fikrlik, vijdon erkinligi, mulk huquqi kabi masalalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Ana shu printsipl va qoidalarga asosan Konstitutsiya davlat hokimiyatining tizimi va organlarini, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga soladi. Bu

o'rinda Konstitutsiya davlat hokimiyatining taqsimlanishi nazariyasini amalga oshirib, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlarini o'zaro tiyib turish va muvozanatda tutish qoidasini ta'minlaydi.

Konstitutsiya normalaridagi yana eng muhim masalalardan biri inson va davlat o'rtasidagi munosabat masalasidir. Bunda asosiy diqqt-e'tibor insonning erki, sog'lig'i, hayoti, mulki kabi huquqlarining ta'minlanganligi va kafolatlanishiga qaratiladi. To'g'ri, insonning ko'p huquqlari Konstitutsiyada ko'rsatilmaydi, ular huquqning boshqa sohalarida, masalan, mehnat huquqi, fuqarolik huquqi, fuqarolik huquqi va shu kabilarda batafsil bayon qilinadi. Ammo Konstitutsiyada insonning tabiiy huquqlari, ya'ni yashash, mehnat qilish, kasb tanlash, mulkdor bo'lish hamda barchaning qonun oldida tengligi kabi huquqlarining muqaddasligi va daxlsizligi aniq belgilab qo'yiladi.

Konstitutsiyada ko'riladigan yana muhim masalalardan biri davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabat masalasidir. Albatta, davlat qonunlar orqali jamiyatda tartib o'rnatadi. U o'tish davrida asosiy islohotchilik vazifasini bajaradi. Bu, davlat jamiyat ustidan hukmronlik qiladi, degan fikrni bildirmaydi. Davlat ham jamiyatning asosiy bir bo'g'ini sifatida amal qiladi. Jamiyat davlatdan ko'ra kengdir. Jamiyat davlat, nodavlat va joylarda o'zini o'zi boshqarish organlarini mujassamlashtirgan holad bir butun tarzda namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 6 bo'lim, 26 bob va 128 moddadan iborat. O'z ichki tuzilishi bilan Asosiy Qonun jahon konstitutsiyaviy amaliyotiga to'la mos keladi. Muqaddimasi juda qisqa va ko'tarinki ruhda yozilgan. Uning mohiyati Konstitutsiyani xalq, ya'ni davlatning haqiqiy sohibi qabul qilganligida va unda o'z irodasini ifoda etganligidadir.

Konstitutsiyaning asosiy mantiqiy yo'nalishi quyidagicha: inson – jamiyat – davlat.

Konstitutsiyaning tuzulishi esa quyidagicha:

- ❖ Birinchi bo'limda mustaqil O'zbekiston davlatining asosiy konstitutsiyaviy printsiplari ko'rsatilgan. Birinchi bo'lim konstitutsiyaviy tuzumning asosiy printsiplari yig'indisidan iborat bo'lsa;
- ❖ Ikkinchi bo'lim inson huquqlari va erkinliklarining yaxlit va keng tizimidir. Inson huquqlari to'g'risidagi bo'limning davlat hokimiyati to'g'risidagi bo'limlaridan oldin berilganligi ham ma'lum bir mantiqqa asoslangandir. Huquqlarni insonga davlat in'om qilmaydi, balki fuqaro o'ziga ozodlik tomonidan berilgan ajralmas tabiiy huquqlar majmuidan ongli ravishda va mas'uliyatni his etgan holda foydalanadi.
- ❖ «Jamiyat va shaxs»deb nomlangan uchinchi bo'lim odatdagidek emas, jahonning bironta Konstitutsiyasida bunday bo'lim yo'q. Bu bo'limning asosiy maqsadi, fuqarolik jamiyatining an'analarini tiklash, ijtimoiy

uyushmalar va munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solib, ularning rivojlanishini ta'minlashdan iborat. Bu bo'lim Konstitutsiyaga kiritilishining sababi: Birinchidan, sovet tuzumi hukmronlik qilgan yillarda o'ta davlatlashtirish siyosatining natijasi o'laroq, jamiyatning barcha jabhalari davlat nazorati ostida edi. Ayni vaqtda davlat tushunchasi jamiyat tushunchasidan tor bo'lib, jamiyatning bir tarkibiy qismidir, holos. Ikkinchidan, jamiyat institutlari bilan davlatning o'zaro munosabatlari avvalambor Konstitutsiya darajasida belgilanmog'i darkor. Uchinchidan, davlat tarkibiga kirmagan jamiyatning iqtisodiy negizlari, jamoat birlashmalari, oila, ommaviy axborot vositalari o'zining konstitutsiyaviy maqomini topgan.

- ❖ Konstitutsiyaning to'rtinchi bo'limi ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishiga bag'ishlangan. O'zbekiston viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalardan iborat ma'muriy-hududiy tuzilishiga egadir. Respublika tarkibiga Qoraqalpog'iston Respublikasi ham kiradi. Bu suveren davlatning konstitutsiyaviy maqomiga va O'zbekiston bilan o'zaro munosabatlariga maxsus XVII-bob bag'ishlangan.
- ❖ Beshinchi bo'lim davlat hokimiyati idoralarini tashkil etish haqida bo'lib, unda hokimiyat vakolatlarini taqsimlash printsipi o'zining amaliy ifodasini topgan.
- ❖ Davlatimizning markaziy idoralari: Oliy Majlis, Prezident, Vazirlar Mahkamasi, Konstitutsiyaviy, Oliy va Xo'jalik Sudlari, Prokuratura, mahalliy davlat hokimiyati idoralarining konstitutsiyaviy maqomi belgilab berilgan. Saylov tizimining printsiplari, moliya va kredit, xavfsizlik va mudofaa masalalari ham konstitutsiyaviy tartibga solish doirasiga kirgan.
- ❖ So'nggi oltinchi bo'lim Konstitutsiyani o'zgartirish muammosiga bag'ishlangan bo'lib, huquqiy nuqtai nazardan Asosiy Qonunning barqarorligini ta'minlashga qaratilgandir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tuzilishi uning, birinchidan, fuqarolar tinchligiga, ya'ni milliy va ijtimoiy totuvlikka, ikkinchidan, shaxs erkinligiga, uchinchidan siyosiy barqarorlikka, to'rtinchidan, farovonlik va iqtisodiy o'sishga, beshinchidan, davlatning odamlar oldidagi o'z burchini bajarishiga erishishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi oliy yuridik kuchga ega bo'lgan davlatning Asosiy Qonuni bo'lib, xalq manfaatlariga muvofiq tarzda yangi demokratik davlatning vujudga kelishi natijasida Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan. Agar unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish zarurati tug'ilsa, bu masala keng jamoatchilikning fikriga tayangan holda amalga oshiriladi. Bu haqda Konstitutsiyaning o'zida aniq me'yorlar belgilangan.

128-modda. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tegishli taklif kiritilgandan keyin olti oy mobaynida Konstitutsiyaga o'zgartirishlar hamda tuzatishlar kiritish to'g'risida keng va har taraflama muhokamani hisobga olgan holda qonun qabul qilishi mumkin. Agar Oliy Majlis Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi taklifni rad etsa, taklif bir yil o'tgandan keyingina qayta kiritilishi mumkin.

O'zbekiston Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibini amalga oshirilishida Asosiy Qonunning 78-moddasi 1-bandida belgilangan qoidaga asosan bunday vakolatga faqat O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ega ekanligi mustahkamlangan. Konstitutsiyaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

127-modda. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi jami deputatlarining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchiligi tomonidan qabul qilingan qonunlar bilan kiritiladi.

Bu jarayonlarga asoslangan takliflar, murojaatlar va xalqning to'liq fikrini o'rganilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar Oliy Majlis deputatlariga asoslantirilgandan keyin deputatlarning kamida 2/3 qismi ovozi bilan hal qilinadi. Bunda dastlab, Oliy Majlis yig'ilishida Konstitutsiyaga qo'shimcha va o'zgartirish kiritish zarurligini o'rganish uchun alohida komissiya tuziladi. Komissiya bunday takliflarni chuqur va har tomonlama o'rganib, qayta ko'rib so'ng Oliy Majlisga taklif kiritadi. Konstitutsiyaning ayrim me'yorlarini ko'rib chiqilishiga mamlakatda amalga oshiriladigan islohotlarning chuqurlashishi yoki oliy davlat hokimiyat organlari tuzilishini yanada takomillashtirish zaruriyati sabab bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, Konstitutsiyaga o'zgartirish hamda tuzatishlar kiritish zaruriyatining paydo bo'lishi davlat va jamiyatning rivojlanishida davlat boshqaruvchi tizimini takomillashtirish borasidagi huquqiy islohotlarning amaliy natijasi bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyani yaratish haqidagi ilk g'oya Respublikamizning 1990 yil mart oyida bo'lib o'tgan o'n ikkinchi chaqiriq Oliy Kengashning birinchi sessiyasidayoq aytilgan edi. O'zbekiston Oliy Kengashining 1990 yil 20 iyunda e'lon qilingan "Mustaqillik deklaratsiyasi" mamlakatimiz yangi Konstitutsiyasini ishlab chiqishga asos bo'ldi.

Shu kuni Oliy Kengash O'zbekiston Prezidenti boshchiligida 64 kishidan iborat konstitutsiyaviy komissiya tuzildi. Komissiya tarkibiga deputatlar davlat hamda jamoat tashkilotlari, korxonalar xo'jaliklarning rahbarlari, taniqli huquqshunoslar, olimlar, va mutaxassislar kirdi.

Konstitutsiya loyihasining dastlabki varianti 1991 yil uchinchi choragida tayyorlab bo'lindi. U muqaddima, olti bo'lim, 158 moddadan iborat bo'ldi. Bu orada 1991 yil 31 avgustda O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishdi.

Buning asosi sifatida O'zbekiston Respublikasining "Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Qonunda xalq hokimiyatchiligi, inson huquqlari muqaddasligi, qonun ustuvorligi, hokimiyat bo'linishi, mamlakatning hududiy yaxlitligi kabi prinsiplar mustahkamlandi. Ushbu demokratik prinsiplar Konstitutsiya mazmunidan joy oldi. Shu kuni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining sessiyasida "Davlat Mustaqilligi to'g'risida Oliy Kengash Bayonot"i ham e'lon qilindi.

1992 yil bahorda Konstitutsiya loyihasining 149 moddadan iborat ikkinchi varianti ishlab chiqildi. Mamlakat Prezidenti ishti-rokida konstitutsiyaviy komissiyaning navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Majlisda Konstitutsiya loyihasi ustida olib borilgan ishlar to'g'risida axborot tinglandi. Shu tariqa ishchi guruh tomonidan Konstitutsiya loyihasining uchinchi varianti tayyorlandi. Konstitutsiyasining loyihasi puxta ishlovlardan so'ng konstitutsiyaviy komissiya qarori bilan 1992 yil 26 sentyabrda umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e'lon qilindi. Umumxalq muhokamasi qariyb uch oy davom etdi. Mamlakatda yashovchi turli millat vakillari muhokamada ishtirok etdi. Konstitutsiyaviy komissiya dastlab belgilagan ikki yarim oylik muddat mobaynida muhokama qilingan loyiha fuqarolar taklif va mulohazalari asosida qayta tuzilib, 1992 yil 21 noyabrda muhokamani davom ettirish uchun ikkinchi marotaba matbuotda e'lon qilindi. Loyihaning bu variantiga ham yangi istaklar bildirilgan xatlar keldi. Konstitutsiyaga hammasi bo'lib, 80ga yaqin o'zgartirish, qo'shimcha va aniqliklar kiritildi. 1992 yil 8 dekabrda O'zbekiston respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilindi.

O'zbekistonning Konstitutsiyasini qabul qilinishiga quydagi omillar ta'sir etdi:

a) O'zbekistonda ilgari amal qilib kelgan Konstitutsiyalar avvalgi totalitar tuzumni himoya qilar edi;

b) O'zbekiston Respublikasining o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi;

c) "Mustaqillik deklaratsiyasi"ni va "Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunning qabul qilinishi yangi Konstitutsiya uchun asos boldi;

d) O'zbekiston xalqi oz oldiga huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurushni maqsad qilib qo'ydi.

"Davlatimizning kelajagi, xalqimizning taqdiri ko'p jihatdan Konstitusiyamiz qanday bo'lishiga bog'liq", – degan edi yurtboshimiz. Konstitutsiya loyihasini tayyorlash borasidagi barcha ishlar I.A. Karimovning bevosita rahbarligida amalga oshirildi.

Konstitusiyamizning yaratilishida, muhokama qilinishida va qabul qilinishida konstitutsiyaviy komissiyaning Raisi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning rolini alohida ta'kidlash lozim. U kishi nafaqat Konstitutsiya ishlab chiqish tashabbuskori, nafaqat loyiha tayyorlash ishlariga rahbar, balki Asosiy Qomusning tub mohiyati, falsafasi, asosiy g'oyalarining muallifidir. I.A.Karimov Konstitutsiyaning har bir moddasini aqli va yuragi bilan his etdi, uni pishitdi va takomillashtirdi.

Mustaqil O'zbekistonning Konstitutsiyasi xalqchil qomusdir. Sababi konstitutsiyaning loyihasi ustida, I.A.Karimov ta'kidlaganidek, taxminan ikki yil davomida ishladi. U ikki yarim oy mobaynida umumxalq muhokamasidan o'tdi, xalqning fikr xazinasini durdonalari bilan boyitildi, sayqal topdi. Yurtimizga xos qardoshlik va do'stlik an'analari, o'zining boy va teran tarixiga ega bo'lishi, xalqlarning o'zaro totuvligi va qo'shnichiligi prinsiplari ham Konstitutsiyamizda muhim o'rin tutadi.

Prezident Konstitutsiyaning kafili sifatida unga rioya qilinishining etaloni hisoblanadi va shu nuqtai nazardan o'zi rahbarlik qilayotgan organlar va mansabdor shaxslarning faoliyatiga baho beradi. U Konstitutsiyaning kafili sifatida fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, O'zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini, uning mustaqilligi hamda hududiy yaxlitligini muhofaza qilish, davlat organlarining o'z vazifalarini bajarishlarini va muvofiqlashgan hamkorligini ta'minlash, konstitutsiyaviy tuzumni mustahkamlash bo'yicha barcha sharoitlarni yaratish uchun zarur chora-tadbirlarni ko'radi.

Konstitutsiyaning asosiy tamoyillari deganda davlat mustaqilligi, xalq hokimiyatchiligi, konstitutsiya va qonunlar ustuvorligi, tashqi siyosat, inson huquq va erkinliklarini oily qadriyat ekanligi, siyosiy fikrlar hilma-hilligi davlat hokimiyatini taqsimlanishi va boshqa masalalar nazarda tutiladi.

Konstitutsiya normalari davlat hokimiyatini amalgam oshirish tamoyillarini ozida aks ettirib, davlat qurilishi, davlatning aholi bilan ortasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi ham o'zining Konstitutsiyaviy rivojlanish tarixiga ega va bu davrlarni shartli ravishda uchga bo'lib o'rganish mumkin.

O'zbekiston tarixida ilk Konstitutsiya 1918 yilda qabul qilingan Turkiston ASSRning Konstitutsiyasi hisoblanadi. Ushbu Konstitutsiya birinchi davr Konstitutsiyalariga misol bo'lib, uning qatoriga BXSRS hamda XXSR Konstitutsiyalari hamda kiradi.

1. 1924 yilda otkazilgan milliy chegaralanishdan song 1927 yilda O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi qabul qilingan.

2. 1937 yilda ittifoq konstitutsiyasiga mos ravishda O'zbekiston SSRda Konstitutsiya yangidan qabul qilingan.

3. 1978 yilda O'zbekiston SSRda uchunchu bor Konstitutsiya qabul qilingan.

4. Mustaqil O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 8 dekabr 1992 yilda qabul qilingan.

Jamiyat va davlat qurilishining boshlang'ich asosini, xalq ommasining erkini, irodasini o'zida mujassamlashtirgan davlatning Asosiy Qonuni huquqshunoslikda Konstitutsiya deb yuritiladi. Konstitutsiya – muhim siyosiy-huquqiy hujjat bo'lib, hokimiyat to'g'risidagi, shaxsning huquqiy holati haqidagi, davlatning ma'muriy-hududiy tuzilishi kabi masalalar uning mazmunini tashkil etuvchi asosiy manba bo'lib hisoblanadi.

Mustaqillik sharofati tufayli 1992 yili 8 dekabrda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilindi. Erkinlik va ozodlikni, mustaqillik

va hurlikni tantanali tarzda o'zida namoyon etuvchi bu muqaddas huquqiy hujjat qabul qilingan qutlug' sanani xalqimiz umumxalq bayrami sifatida keng nishonlab kelmoqda. Mustaqillik Konstitutsiyasi jahonning siyosiy haritasida yangi suveren davlat – O'zbekiston Respublikasi paydo bo'lganligini qonuniy tasdiqlab berdi. O'zbekiston Konstitutsiyasining o'ziga xos mazmuni shundan iboratki, u o'zbek xalqining tarixiy va milliy qadriyatlarini, ga'rb demokratiyaning insonparvarlik tamoyillarini o'zida mujassam etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi jamiyatimiz barcha a'zolarining, shu jumladan yoshlarning manfaatlarini, ularning haq-huquqi va erkinliklarini to'la o'zida ifoda etadi. Chunki kelajagimiz bo'lgan yoshlar davlatimizning har tomonlama qudratli davlatga aylanishida faol ishtiroki hal qiluvchi ahamiyatga ega. Yoshlarning qobiliyati, is'tedodi, bilimiga muvofiq ijtimoiy ehtiyojlarini e'tiborga olib, ilm olish, kasb, mashg'ulot turi va ish tanlash huquqini o'z ichiga oluvchi huquqlar majmui Konstitutsiyaviy qoidalarda mustahkamlab qo'yilgan.

O'zbekiston yangi Konstitutsiyasini yaratish g'oyasi 1990 yil 20 iyunda Mustaqillik Deklaratsiyasi qabul qilinishi bilan bevosita bog'liqdir. Konstitutsiyani yaratish zarurati o'z-o'zidan paydo bo'lgani yo'q. Buning albatta o'z sabablari bor edi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinishi asosiy sabablari: o'zbek xalqining ozodlik, erk va mustaqillik yo'lidagi intilishi; xalqning butun bor imkoniyati va salohiyatini ishga solish, jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash; iqtisodiy va siyosiy munosabatlarni demokratlashtirish, suveren davlatning huquqiy asoslarini yaratish, huquqiy nigilizm va o'zboshimchalikning oldini olish, o'z istiqloq va taraqqiyot yo'lini huquqiy jihatdan belgilash zaruriyati va boshqa omillar tashkil etadi.

Birinchi Konstitutsiya loyihasini tayyorlash uchun mamlakatning ko'zga ko'ringan siyosatshunos, huquqshunos, iqtisodchi va boshqa mutaxassis olimlardan tarkib topgan 64 kishidan iborat komissiya tuzildi. Konstitutsiya loyihasini tayyorlash komissiyasining birinchi tashkiliy majlisi 1991 yil 12 aprelda Prezident Islom Karimov raisligida o'tdi. Unda kelajagi buyuk davlatning Konstitutsiyasi «o'zbek xalqining munosib turmushini, huquqlari va erkinliklarini kafolatlashi, milliy qadriyatlarimiz va madaniyatimizni qayta tiklashi, insonning ma'naviy-axloqiy barkamolligini ta'minlash kerak» degan vazifa qo'yildi. Bu vazifa zahirida tamoyillarga javob bera oladigan xalqchil Asosiy Qonun yaratildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinishi tarixda yangi burilish davri sahifasini ochib berdi. U jamiyatda tamomila yangi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy tizim qaror topishiga huquqiy poydevor sifatida dunyoga keldi. Uning qabul qilinishi qonunchilikdagi mustaqillik bo'ldi.

Konstitutsiya – xalqning, millatning yuz-ko'zi, uning obro'-e'tibori va nufuzi timsoliga aylandi. Shu ma'noda Konstitutsiya o'zbek xalqi irodasi, erki,

ruhiyati, ijtimoiy-siyosiy tafakkuri va madaniyati mahsulidir. Chunki Konstitutsiya loyihasi ustida ikki yil davomida ishlanib, u umumxalq muhokamasidan o'tdi. Umumxalq muhokamasi davomida jami 6 mingdan ortiq taklif va mulohazalar bildirildi. Xalqning fikrlari asosida Konstitutsiya loyihasi yanada boyitilib sayhal topdi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tub mohiyatiga ko'ra yangi huquqiy hujjat bo'lib, unda inson manfaati ulug'lanadi. Insonning ajralmas huquq hamda erkinliklarining davlat huquqlaridan ustunligi tan olinadi va u davlat himoyasidadir.

Konstitutsiya xalqimizga xos bo'lgan xususiyatlar: mehr-oqibat, odob-axloq, odamiylik, o'zga millatlarga hurmat, aql-zakovatga intilish, iymon va e'tiqod, or-nomus, iffat va hayo kabi ezgu fazilatlarga asoslanadi.

Konstitutsiyada milliy xususiyatlar ham yorqin aks ettirilgan. Bu xususiyatlar: konstitutsiyada mustahkamlangan qoidalarda milliy qonunchilik rivojlanishi uchun zamin yaratilganligi; tarixiy, etnografik, milliy an'analar, urf-odatlar va qadriyatlarimiz singdirilganligi; ma'naviy va madaniy tarixiy merosni asrash, oila qadriyatlari va milliy ruhiy, demokratik, tabiat-iqlim, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar inobatga olinishida namoyon bo'ladi.

Konstitutsiyada yana bir muhim xususiyat o'z ifodasini topgan. Bu davlatchiligimizning tarixan tarkib topgan ilg'or tajribalaridan foydalanilganligidir. Tarixdan ma'lumki, biz yashayotgan Vatanimiz hududida qonun ustuvorligi ta'minlanishi asosida ozodlik va mustaqillik buyuk saltanatlar hukm surgan davrlar bo'lgan. Xususan, Amir Temur davrini alohida ta'kidlash lozim. /«Temur tuzuklari» shu davrning yorqin «Konstitutsiya»si bo'lib, jamiyatda ustuvor ravishda amalda bo'lgan. Ana shu tajribalardan, al-Farobiyning fozil davlat va Navoiyning adolatli jamiyat to'g'risidagi ta'limotlari hamda boshqa buyuk allomalar huquqiy merosidan foydalanilganligi Konstitutsiyaning mazmunini yanada boyitgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yakka hukmronlikka da'vo qiluvchi mafkuradan, zo'rlab tiqishtirilgan siyosatbozlikdan, siyosatlashuvdan, balandparvoz shiorlardan, sinfiylikdan va partiyaviylikdan holidir. Shuning uchun ham Mustaqillik Konstitutsiyasi Sho'ro davrida qabul qilingan siyosiy manifest shaklidagi Konstitutsiyalardan hayotiyiligi va amal qiluvchi xususiyati bilan chinakam yuridik hujjat sifatida mazmunan ajralib turadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining maqsadi, printsiplari, asosiy qoidalari mazmun va mohiyati negizini belgilovchi ulug'vor g'oyalar, uning Muqaddimasida to'la bayon etilgan. Konstitutsiya muqaddimasi juda ixcham va yuksak saviyali. Muqaddimada O'zbekistonning rivojlanish, yangilanish va taraqqiyot yo'li hamda yangi jamiyat va davlat qurilishining yo'nalishlari belgilab

beriladi.

Konstitutsiya g'oyalari o'z-o'zidan amalga oshmaydi. Ularni hayotga tadbiq qilishga qodir bo'lgan kuch ham kerak. Bunday kuch jamiyat, davlat va insonning o'zidir. Asosiy Qonundagi insoniy, ma'naviy ahamiyatga ega bo'lgan siyosiy-huquqiy g'oyalarni ro'yobga chiqarishda har bir inson va fuqaroning faol ishtirok etishi muhimdir. Shu bilan birga jamiyat a'zolarining huquqiy madaniyat darajasi yuqori bo'lishi ham zaruriy shatlardan biridir. Shuning uchun har birimiz aql-zakovatimizni va bilim salohiyatimizni Konstitutsiyada mustahkamlangan yuksak g'oyalarni hayotda ro'yobga chiqarishga safarbar etishimiz lozim bo'ladi.

Konstitutsiya – bu nafaqat asosiy qonun, shu bilan birga u muhim va alohida olingan huquqiy akt hamdir. Konstitutsiyaning ushbu xususiyati uni boshqa qonunlardan yaqqol ajratib turadi. Qonunning yuridik kuchi, odatda, o'zidan kuchliroq bo'lgan boshqa qonun bilan o'lchanadi. Konstitutsiyaning yuridik kuchini aniqlovchi undan kuchliroq qonun yo'q. U davlatning eng asosiy, oliy qonuni bo'lib, o'z kuchini o'zi belgilaydi. Konstitutsiyaning yuridik manba sifatidagi ahamiyati aynan shunda ko'rinib turadi.

Konstitutsiya davlatning asosiy qonuni bo'lib, uning muhim xususiyati shundaki, u davlat hayotining ma'lum bir tomonini, ijtimoiy munosabatlarning ma'lum bir tarmog'i emas, balki muayyan jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar tizimini va davlat tuzumining eng muhim, eng asosiy tomonlarini huquqiy jihatdan mustahkamlaydi.

Konstitutsiyaning muqaddimasida:

«O'zbekiston xalqi:

inson huquqlariga va davlat suvereniteti g'oyalariga sodiqligini tantanali ravishda e'lon qilib, ...

insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishini ko'zlab ...

O'zbekiston Respublikasining mazkur Konstitutsiyasini qabul qiladi» – deb mustahkamlab qo'yilgan.

O'zbekiston Konstitutsiyasining muqaddimasida e'lon qilingan deklarativ normalar uning uzoqni ko'zlab o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini ko'rsatib turadi. Davlat shu maqsad yo'lida konstitutsiyaviy yo'l bilan harakat qiladi va kelajakda insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishni ko'zlab olg'a intiladi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi O'zbekiston Respublikasi Oliy kengashi tomonidan 1992 yil 8 dekabrda qabul qilindi va kuchga kiritildi. Lekin u qabul qilingan vaqtda hali ulgurilmagan davlat organlarining, masalan, Oliy Kengash o'rniga Oliy Majlisning, Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi o'rniga Konstitutsiyaviy sudning tuzilishi belgilab qo'yilgan edi.

Davlat suvereniteti davlatning mustaqilligini bildiruvchi termin bo'lib, davlatning muhim belgisi va xususiyati hisoblanadi.

«Suverenitet» termini XVI asrda Frantsiyada fujudga kelgan. Bu termin «Suverenitet» soʻzidan kelib chiqib, aslida, oliy hokimiyat egasi degan maʼnoni anglatadi. Suverenitet davlatning umumiy va ajralmas xususiyati boʻlib, uning toʻla huquqligini, ichki hamda tashqi funktsiyalarini amalga oshirishda boshqa davlatlarga qaram emasligini ifodalaydi.

Suveren davlat oʻz ichki va tashqi vazifalarini boshqa davlatlarning huquqlarini, shuningdek xalqaro huquq tamoyillari va meʼyorlarini buzmaganda holda, oʻzi xohlagan hal qiladi.

Suverenitet davlatga xos tushuncha boʻlib, u bilan birga vujudga keladi. Davlat va uning xususiyati boʻlgan suverenitet tarixiy hodisadir.

Millatlarning oʻz taqdirini oʻzlari belgilash huquqi, yaʼni oʻz taqdirini chet davlatlarining aralashuvisiz belgilash huquqi suverenitetning asosini tashkil etadi. Hozirgi sharoitda davlat suvereniteti tamoyillari xalqaro hamkorlikning eng muhim masalasidir. Er yuzidagi barcha mamlakatlar oʻzaro mansabatlarining teng huquqlik, bir-birlarini ichki ishlariga aralashmaslik, boshqa davlatlarga hujum qilmaslik va ularning hududiy butunligiga daxl qilmaslik, shuningdek suvereniteti va milliy mustaqilligini toʻla hurmat qilish tamoyillariga asoslangan boʻlishi uchun kurashmoqda.

Oʻzbekiston davlatining mustaqilligi, davlat suvereniteti Oʻzbekiston Konstitutsiyasining birinchi moddasidayoq qonuniy mustahkamlangan.

“Oʻzbekiston-demokratik davlat. Bu insonparvarlik qonunlariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy axvoli, siyosiy eʼtiqodlaridan qatʼi nazar, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini taʼminlab beradigan davlatdir”.

Davlat suvereniteti millat, xalq suverenitetidan boshlanadi va uning oʻrnida keladi. Suverenitet har qanday davlatning eng muhim, ajralmas belgilaridan biridir. Davlatning belgilovchi alomatlaridan biri uning davlat suvereniteti sanaladi. 1990 yili 20 iyunda **“Oʻzbekiston Respublikasi suvereniteti toʻgʻrisida deklaratsiya qabul qilingan, unda respublika davlat suverenitetining asosiy printsiplari mustahkamlab qabul qilingan”.**

- Davlat hududi hamda chegaralarning daxlsizligi va boʻlinmasligi;
- Mustaqil ichki va tashqi siyosat;
- Xalqaro huquqning asosiy printsiplarini eʼtirof etish va hurmat qilish;
- Oʻz taraqqiyot yoʻlini, davlat ramazlarini tanlashdagi mustaqillik va h.k.

1991 yil 31 avgustda Oʻzbekiston Oliy Kengashining 11 sessiyasida mamlakatimiz davlat mustaqilligi eʼlon qilingan. Ana shu sessiyada **«Davlat mustaqilligi asoslari toʻgʻrisida» qonun** qabul qilingan. U Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingan 1992 yil 8 dekabr qadar Asosiy qonun rolini bajardi.

Har qanday mustaqil davlat singari Oʻzbekiston Respublikasi ham oʻz oliy

davlat hokimiyati tomonidan belgilangan va Asosiy Qonunda mustahkamlangan davlat ramzlari-Bayrog'i, Gerbi va Madhiyasiga ega: Davlat ramzlarining mavjudligi O'zbekistonning amalda mustaqilligi va erkinligini yaqqol tasdiqlaydi. Binobarin, O'zbekiston Konstitutsiyasining 5-moddasida

Ma'lumki, Konstitutsiya konsitutsiyaviy tuzumning asosiy shartlaridan biri bo'lmish xalq hokimiyatchiligini mustahkamlab beradi.«**Xalq hokimiyatchiligi**» atamasi yunoncha «**demokratiya**»so'zining aynan tarjimasidir. Ilk bor yunon shahar davlatida paydo bo'lgan bu so'z butun dunyoga tarqalgan va siyosiy lug'atdan mustahkam o'rin olgan.

Jahondagi demokratik davlatlarning Konstitutsiyalari «butun hokimiyat xalqqa tegishli» yoki «butun hokimiyat xalq tomonidan amalga oiriladi», degan tushunchani o'zida mujassamlashtirgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2-bobida «**xalq hokimiyatchiligi**» atamasi «**hokimiyat manbai**»degan atama bilan uzviy bog'langan.

Demokratiyaning asl mohiyati o'z-o'zini boshqarish, o'z hayotini o'z qobiliyatiga, o'z tafakkuriga va o'z vijdoniga ko'ra qurishdir va buning oqibati uchun mas'uliyatini ham o'ziga olishdir.

O'zbekiston davlat hokimiyatining bir-biridan manbai xalq bo'lib, davlat xalq irodasini ifodalaydi, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat siyosatini xalqning xohish-irodasi belgilab beradi. Mazkur siyosat inson va jamiyatning farovonligini, O'zbekistondagi barcha fuqarolarning farovon tumushini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak.

Konstitutsiyaning 8-moddasida qayd etilgan qoida jahondagi hech bir konstitutsiyada uchramaydi. Unda «**O'zbekiston xalqi**»tushunchasiga Konstitutsiya darajasida ta'rif berilgan. O'zbekistonda tug'ilgan, uning zaminida istiqomat va mehnat qilayotgan har bir kishi, milliy va irqiy mansubligidan, e'tiqodidan qat'i nazar, respublikamizning teng huquqli fuqarosi bo'lishga munosibdir.

O'zbekiston fuqarolari, o'zlarining nasl-nasabi, irqi, ijtimoiy kelib chiqishi va boshqa holatlardan qat'i nazar, O'zbekiston xalqini tashkil etadi. Qonstitutsiya O'zbekiston xalqini tashkil etuvchi barcha millat va elatlarning urf-odatlarini va milliy an'analarini hurmat qilinishini kafolatlaydi.

«Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiy ovozga (referendumga) qo'yiladi. Referendum o'tkazish tartibi qonun bilan belgilanadi».

Insoniyat tajribasi demokratiyaning ikki shaklini ishlab chiqqan: to'g'ridan-to'g'ri, bevosita demokratiya hamda vakillik demokratiyasi-organlar, avvalambor, vakillik va boshqa saylab qo'yiladigan organlar orqali amalga oshiriladigan demokratiya, ya'ni saylov demoqatiyasi. Demokratiyaning mazkur shakllarini bir-

biriga qarshi qo'ymaslik lozim, chunki bu ikkala shakl o'ziga xos ahamiyatga ega va o'zaro uzviy bog'liqdir.

To'g'ridan-to'g'ri demokratiya- insonning davlat ishlarini hal qilishda yashirin ovoz berish ohali yoki boshqa shaklda bevosita ishtirok etish. Vakillik demokratiyasi deb insonning davlat ishlarini hal etishda o'zi saylagan vakillari, ya'ni deputatlar orqali ishtirok etishiga aytiladi.

Bevosita demokratiya (asosiy qarorlar barcha fuqarolar tomonidan referendum, yig'in kabilarda qabul qilinadi) va bilvosita demokratiya (qarorlar saylab qo'yiladigan muassasalar - parlamentlar va boshqalar tomonidan qabul qilinadi) farqlanadi. Demokratiya institutlari huquqiy davlatda to'la rivojlanadi.

Darhaqiqat, biz demokratiyani fuqarolarning saylovlarda to'g'ridan- to'g'ri o'zlari xohlagan nomzodlariga yoki partiyalarga ovoz berishlarida ko'rishimiz mumkin.

Referendum o'tkazish tartibi 1991 yilda qabul qilingan **«O'zbekiston Respublikasining referendumini to'g'risida»**gi qonun bilan tartibga solina boshlandi. 2001 yil 29 avgustda «O'zbekiston Respublikasining referendumini to'g'risida» (yangi tahrirdagi) qonun qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasida davlat hokimiyatining tashkil etilishi va faoliyat tartibi vakolatlarining taqsimlanishi printsiplari negizida amalga oshirilishi ko'rsatilgan.

O'zbekistonda adolatli va huquqiy-demokratik davlatga xos tamoyillar konstitutsiyaviy yo'l bilan mustahkamlangan. Ana shunday tamoyillar sifatida ijtimoiy adolat va qonuniylik printsiplari Konstitutsiyamizda quyidagicha ifodalangan:

14-modda. Davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik printsiplari asosida amalga oshiradi.

O'zbekiston Konstitutsiyasida o'rnatilgan me'yor davlatimiz faoliyatining eng asosiy printsiplarini belgilab beradi. Bu juda muhimdir. Chunki davlat o'z faoliyati bilan inson va jamiyat taqdirini belgilashi mumkin. Ayniqsa, hozirgi vaqtda jamiyat davlatsiz yashay olmasligi hammaga ayon bo'lib qoldi.

Demak, Konstitutsiya bo'yicha davlat o'z faoliyatini ijtimoiy adolat va qonuniylik printsiplari asosida yuritadi. Bu esa uning demokratik mohiyatini namoyon qiladi. Davlat o'z faoliyatini insonlar va butun jamiyatning porloq kelajagini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik printsiplari asosida amalga oshirilmoqda. Shu poydevor ustida respublikamizda yangi huquqiy davlat ko'rilmogda. Unda qonunga bo'ysunish va barqarorlik taraqqiyotning asosiy sharti bo'ladi.

3. Konstitutsiya va qonunning ustunligi printsiplari tushunchasi va O'zbekiston Respublikasida barcha qonunlarni va boshqa me'yoriy –huquqiy hujjatlarni

konstitutsiya normalari asosida qabul qilinish shartlari va kafolatlari.

Konstitutsiya va qonunlar davlatchilikning eng muhim belgilaridan hisoblanadi. Shu bois O'zbekistonda yangi davlat qurilishi davlatning xalq oldidagi mas'uliyatini, inson va fuqaro huquqlari ustuvorligiga rioya qilish mehanizmlarini belgilab beruvchi uning huquqiy asoslarini va qonunchilik poydevorini yaratishdan boshlanadi. Qonunchilikning eng muhim mezonlariconunlar, farmonlar, Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, Hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar va fuqarolar normativ hujjatlarning va ularga amal qilinishning Konstitutsiya normalariga mutlaqo muvofiq kelishdir. Zero, qonunchilik-davlat, jamiyat va fuqarolarning real hayotida ro'yobga chiqadigan huquq, ya'ni qonun demakdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlab o'tganidek: «Qonun ustuvorligi bizning islohotlar modelimizdagi etakchi tamoyildir. U huquqiy davlatning asosiy mezonlaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Buyuk bobomiz Amir Temur «Qonun hukmron bo'lgan joyda erkinlik ham bo'ladi» degan dono so'zlarni oltin harflar bilan yozib qo'yishga amr bergan edi.

Qonunchilik bu davlat tomonidan qonunlar tizimini jamiyat taraqqiyoti talablariga mos ravishda takomillashtirib borish va davlat organlari, jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan qonunlarga qat'iy rioya etish va ularni og'ishmay amalga oshirishda namoyon bo'ladigan davlat va jamiyat hayotining printsipidir. Qonunchilik printsipti qonunlarning hamma uchun istisnosiz majburiyligini, hammaning qonun oldida tengligini, qonunlarning hamma erda bir hilda joriy qilinishini ham anglatadi.

Asosiy Qonunimizning 16-moddasida mazkur Konstitutsiyaning birorta qoidasi O'zbekiston Respublikasi huquq manfaatlariga zarar etkazadigan tarzda talqin etilishi mumkin.

Birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas. Chunki Konstitutsiya davlatimizning Asosiy Qonuni bo'lib, u oliy yuridik kuchga ega bo'lgan qonunchilik hujjatdir, Konstitutsiya huquqining hamma tarmoqlari: fuqarolik huquqi, jinoyat huquqi, ma'muriy huquq va hokazolar uchun qonunchilik bazasi bo'lib hisoblanadi. Davlat organlarining barcha qonunlari va me'yoriy-huquqiy hujjatlari Konstitutsiyasi asosida chiqariladi va uning qoidalariga xilof bo'lmasligi lozim.

Asosiy qonunimizga binoan O'zbekiston tarixida birinchi marta Konstitutsiya maxsus tarzda muhofaza qilinadigan bo'ldi. Ya'ni shu maqsadda Konstitutsiyaviy sud joriy qilindi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy printsiplari Konstitutsiyaning 17-moddasida o'zining qonuniy aksini topgan. Tashqi siyosat tushunchasi davlatning xalqaro ishlaridagi umumiy kursini o'z ichiga oladi. Tashqi

siyosat davlatning boshqa davlatlar va xalqlar hamda xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro aloqalarini o'z ichiga oluvchi maqsad va vositalarini qamrab oladi.

- ✓ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan suveren tenglik printsiplari davlatlarning o'ziga xosligini, mustaqillikni hurmat qilishni, huquq va erkinliklarni kafolatlashni, o'zining siyosiy, iqtisodiy va madaniy tizimini erkin tanlashni, mustaqil raishda o'zining qonunlari va ma'muriy qoidalarini o'rnatishni bildiradi.
- ✓ Kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid solmaslikning konstitutsiyaviy printsiplari boshqa davlatga nisbatan bevosita yoki bilvosita ravishda kuch ishlatishga qaratilgan turli harakatlardan o'zlarini tiyishlarini bildiradi.
- ✓ Chegaralarning daxlsizligi printsiplari barcha davlatlarning hududiy ustunligi va hududiy yaxlitligini xurmat qilishni bildiradi. Ular har qanday davlatning butun hududi yoki hududining bir qismini bosib olish yoxud zo'rlik bilan egallashga qaratilgan har qanday talablar va harakatlardan o'zlarini tiyib turish majburiyatini oladilar.
- ✓ O'zbekiston Respublikasida belgilab qo'yilgan nizolarni tinch yo'l bilan hal etish printsiplari shuni nazarda tutadiki, barcha nizoli masalalar faqat tinch yo'l bilan va xalqaro huquqqa mos ravishda, ya'ni xalqlarning qonuniy manfaatlari, tinchligi va xavfsizligini xavf ostida qoldirmasdan hal qilishi kerak.
- ✓ O'zbekiston tashqi siyosatining boshqa davlatlar va xalqlarning ichki ishlariga aralashmaslik to'g'risidagi konstitutsiyaviy printsiplari xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan printsiplari asoslanadi.
- ✓ Bu printsiplarning umuman tan olinishi, davlatlar o'zaro munosabatlaridan qat'i nazar, boshqa a'zo davlatning ichki vakolatiga kiradigan ichki va tashqi ishlarga har qanday aralashishdan (xoh u bevosita yoki bilvosita bo'lsin, yakka yoki jamoa tarzida bo'lsin) o'zlarini tiyib turish to'g'risida kelishib olganligini anglatadi. Ta'kidlash joizki, xalqaro huquqda aralashmaslik printsiplari- boshqa davlatning tuzumini kuch bilan ag'darib tashlashga qaratilgan terroristik, qo'poruvchilik yoki boshqa faoliyatga bevosita yoxud bilvosita yordamdan o'zini tiyib turishni bildiradi.